

O'zbekistondagi atrof-muhit va bioximallikni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar xalqaro simpoziumda

Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon Ekologiya va Geografiya institutida "Bioxilma-xillikni muhofaza qilish va qurg'oqchil hududlarni barqaror rivojlantirish" mavzusida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. Unda Yevropa, Afrika, Osiyo mamlakatlarining yirik olimlari hamda YuNESKO, Bioxilma-xillik bo'yicha konvensiya kotibiyati (Kanada), Xitoy atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti vakillari ishtirok etishdi.




Simpoziumda O'zR FA Botanika instituti direktori D.Dehqonov "O'zbekistonda bioxilma-xillikni muhofaza qilishning asoslari va zamonaviy tadqiqotlar" mavzusida ma'ruza qildi. Unda Davlatimiz Rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, BMT Bosh Assambleyasining 75-76-sessiyalarida bildirilgan takliflari hamda Botanika instituti tomonidan bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va zamonaviy tadqiqotlar bo'yicha taqdimot qilindi.





Living collection of Tulipa species (22 species)
in the Botanical Garden of the Institute of Botany AS



Soha olimlari va ishtirokchi tashkilot vakillarida atrof-muhit va bioxilma-xillikni muhofaza qilish borasidagi yurtimizda olib borilayotgan ishlar katta taassurot va qiziqish uyg'otdi hamda navbatdagi xalqaro simpoziumni Fanlar akademiyasi Botanika institutida o'tkazish bo'yicha takliflar berildi.